

"HAVAS QILGAN JONKUYAR USTOZIM ODILJON NAZAROV"

Yuldashev Jahongir

O'zbekiston davlat konservatoriysi "Xalq cholg'ularida ijrochilik"
ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

Abstract

This article reflects the diligence, kindness of our teacher, Professor Odiljon Nazarov, and his upbringing of students in the spirit of devotion to the Motherland.

Keywords

Musical, Coherent, Style, Education.

Musiqa san'ati ko'ngil gavhari. Musiqa cholg'ularidan biri qashqar rubobi meni o'ziga ohangrabodek jalgilgan. Men bu musiqa cholg'usiga qiziqishimga sabab, qashqar rubobida ijo etiladigan kuylarni eshitib, shu cholg'uga mehrim tushdi. Shu musiqa cholg'usining moxir ijrochilaridan biri ustozim Odiljon Nazarov 1964-yil Farg'ona viloyati Rishton tumanida tavallud topgan. O'zbekiston davlat konservatoriyasini Qashqar rubobi yo'nalishi bo'yicha tamomlaganlar. Ilk ish faoliyatatlari 1987-yil Farg'ona san'at kollejidan boshlangan. Undan so'ng O'zbekiston teleradio kompaniyasi qoshidagi doni Zokirov orkestrida sozanda

bo'lib, undan tashqari paralell ravishda 1991-yilda "So'g'diyona" orkestrida faoliyat yuritadilar. Talabalik davrlarida ham

Glier nomli musiqa maktabida, 2000-2004-yillarda Nizomiy nomidagi "Pedagogika" institutida ish faoliyatini olib boradilar. 2004-yildan hozirga qadar O'zbekiston davlat konservatoriyasida faoliyat yuritib o'qituvchi, katta o'qituvchi, dosent va 2016-yil professor darajasiga

erishganlar. Odiljon Nazarov 1991-yildan O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, professor Feruza Abdurahimova boshchiligidagi "So'g'diyona" milliy xalq cholg'ulari kamer orkestrida faoliyat yurita boshlaganlar ko'plab xorijiy mamlakatlarda ijodiy safarlarda bo'lib jumladan: Rossiya, Qozoqiston, Germaniya, Fransiya, Ispaniya, Hindiston, Koreya, Amerika qo'shma Shtatlari va Misr Arab Respublikalarida bo'lib yakkaxon (solist) sifatida ham doimiy ishtirop etganlar. Bundan tashqari O'zbekistondagi ko'plab davlat tadbirlarida Mustaqillik, Navro'z bayramlarida va Sharq taronalari xalqaro festivalida ham "So'g'diyona" orkestri bilan faol ishtirop etganlar. "So'g'diyona" xalq cholg'ulari orkestri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qabul ma'rosimlarida ham 10 yil davomida juda faol ishtirop etib kelishgan. Bu borada ham ustozim Odiljon Nazarov yakkaxon sifatida ko'plab chiqish qilganlar. Ijro dasturlaridan ko'plab asarlar o'rinn egallagan. Bundan tashqari O'zbekistondagi ko'plab davlat tadbirlarida Mustaqillik, Navro'z bayramlarida va Sharq taronalari xalqaro festivalida ham "So'g'diyona" orkestri bilan faol ishtirop etganlar. "So'g'diyona" xalq cholg'ulari orkestri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qabul ma'rosimlarida ham 10 yil davomida juda faol ishtirop etib kelishgan. Bu borada ham ustozim Odiljon Nazarov yakkaxon sifatida ko'plab chiqish qilganlar. Ijro dasturlaridan ko'plab asarlar o'rinn egallagan. Jumladan: A.Ismoilov "Tong" M.Murtazoev "Tamanno" Xanmamedov "Konsert 1,2,3-qismlar", T.Jalilov "O'rgilay", A.Boboxonov "Feruza" va Eron xalq qo'shig'i "Kojo rafte" kabi bir qancha asarlar ijro repertuaridan o'rinn olgan bo'lib bu asarlar magnit tasmalarga



yozib olingen. Bir qanchalari O'zbekiston radiosи oltin fondida saqlanadi. Asosiysi shu davr mobaynida sozandalik faoliyati bilan birga doimiy pedagogik faoliyatini olib borganliklari bilan alohida e'tiborga molik. 2007 yil O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist unvoniga sazovor bo'ldilar.

Bevosita Odiljon Nazarovni uslubiyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak uzoq yillar pedagogik faoliyati jarayonida o'ziga xos o'qitish uslubiyatini yaratgan. Ustozni talabalar bilan ishlash mahorati, pedagogik mahorti, dunyoqarashining kengligi alohida e'tiborga molik. Talabalar bilan shug'ullanganda ko'p narsalarni tushuntirib, ko'rsatib berishlarini alohida aytib o'tish mumkin undan tashqari katta tajriba asosida yaratilgan kitoblar, o'quv qo'llanmalardan ayniqsa musiqa maktablar uchun yaratilgan "Qashqar rubobi" kitobi musiqa muktabidagi barcha bir jihatlarni o'z ichiga qamrab olganligi bilan taqsinga sazovor. Bugungi kunda o'quv amaliyotida keng ishlatilib kelinayotgan o'quv adabiyotlaridan biri hisoblanadi. Undan tashqari yana bir "Qashqar rubobi" uchun yaratilgan "Etyud va gammalar" kitobini alohida ta'kidlash joiz. Bu kitob konservatoriya talabalari uchun maxsus tayyorlangan bo'lib bunda konservatoriya talabalarini ijro mahoratini takomillashtirishga qaratilgan muhim va dolzarb masalalar ustida so'z boradi. Yana bir muhim o'quv qo'llanmalaridan biri 2008 yilda nashrdan chiqgan "Qashqar rubobida o'qitish uslubiyoti" kitobida, o'qitish uslubiyotining barcha jihatlarini qamrab olingenligi va to'liq yoritib berilganligi, aynan amaliy tajribaga aoslanganligi bilan tahsinga sazovor. Bu o'quv qo'llanmalar o'quv jarayonida keng qo'llanilayotgan noyob o'quv adabiyotlar sarasiga kirib ulgurgan. Shu o'rinda bevosita ustozning ilmiy faoliyatlariga e'tibor qaratsak, ular tomonidan 1ta darslik, 1ta monografiya, 5ta o'quv qo'llanmalar va 20 dan ortiq ilmiy-uslubiy maqolalar chop ettirganligini guvohi bo'lamiz. 2008 yilda nashrdan chiqqan "Qashqar rubobida o'qitish uslubiyoti", BMSMlar uchun "Qashqar rubob"(o'quv qo'llanma, 2013), "Rubob ijrochiligi"(o'quv qo'llanma, 2015), "Qashqar rubob uchun gamma va etyudlar"(o'quv qo'llanma, 2016), "Xalq cholg'ularida ijrochilik"(darslik, 2018), "Maqsad sari yo'l" (monografiya, 2021) shular jumlasidandir. Ushbu qo'llanma va darsliklar BMSMlar uchun, litsey-kollejlar hamada olyi ta'lim muassasalari uchun chiqarilgani va ular bugun musiqiy ta'lim amaliyotida eng ko'p qo'llanilib kelayotganligi alohida e'tiborga molik.

Odiljon Nazarov talabalar bilan ishlash jarayonida katta tajribaga ega. Ustoz o'quvchilarning nafaqat Qashqar rubobida o'qitish, ijro etish mahoratlarini rivojlantirish balki uning umumiyligi dunyoqarashini rivojlantirish, bilimlar doirasini kengaytirish borasida alohida uslubiyotini yaratgan ustozlardan biri hisoblanadi. Talabalar bilan yaqindan muomalada bo'lish ularning qiziqtirgan masalalari bilan qiziqish, ularga har jihatdan yordam berish, turli yangiliklar bilan doimiy tanishtirib borish borasida barchaga na'muna desak mubolag'a bo'lmaydi.

Feruza Abdurahimova (O'zbekiston xalq artisti, san'at arbobi) Odiljon Nazarov haqidagi fikrlari: Odiljon Nazarov bilan ko'p yillardan beri birga ishlab kelamiz. Odiljon Nazarov noyob inson deb aytsam bo'ladi. Ularda chuqur odamiylik, shu bilan bir qatorda juda yaxshi professional, ya'ni bunday holat kamdan-kam uchraydi. Yaxshi inson va yaxshi professional bo'lismi. Ayniqsa ana shu fazilatlar Odiljonda mujassamlangan bo'lib, ularni faoliyatida, odamlar bilan muomulasiда namoyon bo'ladi. So'g'diyona orkestrini tashkil qilganimizda birinchilardan bo'lib kelgan. Eng qimmatli tomoni shundaki o'z ustida doim ishlab kelgan. Shuning uchun noyob so'zini ishlatganimki, ba'zi bir insonlar yaxshi o'qib ko'p narsani o'rgandim, qo'limdan keladi deb o'z ishini bajarib yurishadi, lekin Odiljon Nazarov ana shunday inson emas. Har doim izlanishda bo'lib, doimo adabiyot va san'atga o'zini bag'ishlagan. Bularni barchasi o'zbek milliy san'atimizni rivojlanishiga qaratilgan. So'g'diyona orkesti bilan birgalikda konservatoriya ham pedagogik faoliyatini olib bordi. Katta o'qituvchi, dotsent, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, professor darajasiga o'z mehnati va tinimsiz izlanishlari orqali erishgan. Orkestrimizning ichki muhitini yaratishga yordam bergen.

Odiljon Nazarov So'g'diyona orkestrida 30 yildan buyon faoliyat yuritib kelgan. Odiljon bilan birga shunday xulosaga keldikki o'nilariga shogirdlari orkestrant sifatida ish boshladi. O'zim ham san'atda 50 yildan beri ishlagan bo'lsam, ko'plab insonlarni uchratganman. Lekin bunday o'z ishiga sodiq, juda yuqori saviyadagi professional va o'z bilimlarini ichida saqlab qolmasdan o'z shogirdlariga topshirishi, noyob odamni fazilatlari bo'lsa kerak. Men hayotimda Odiljon Nazarovga o'xshagan odamni uchratganidan xursandman. Aynan Odiljonga o'xshagan odamlar So'g'diyonani saqlab qolishga yordam bergen. Shunday og'ir paytlar bo'lganki barcha ishni tashlab ketging keladi. Shunday og'ir kunlarni biz birga kechirganmiz, yo'q Feruza opa hali hammasi yaxshi bo'ladi deb dalda bergen. Men Odiljon Nazarovga tilagim umri uzoq bo'lsin, sog' bo'lsin aynan shunday odamlar o'zimizni kasbimizni saqlab qolishga yordam beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki. "Ustoz otangdek-ulug'" o'zbek xalq maqoli bejiz emas. Men buni talaba bo'lib his qildim. Sababi ota-onamiz farzandini voyaga etkazib boqib katta qilar ekan, ustoz o'z bergen bilimlari orqali kelajakka poydevor qo'yguvchi zotdir.

Foydalanimagan adabiyotlar

| Nº | Maqola muallifi | Maqola nomi | Jurnal, gazetaning nomlanishi | Gazeta (jurnal)ning soni, oyili, yili |
|----|-----------------|---|--|---------------------------------------|
| 1 | R.Salayeva | "Ma'naviyat chashmasi" | "Ohangaron hayoti" | 11 aprel 2014 yil № 15 (9211) |
| 2 | O.Miskinov | "Milliy musiqamiz jilvasi maftun etadi" | "Toshkent oqshomi" | 16 iyun 2009 yil № 118 (12679) |
| 3 | B.Azimov | "Qashqar rubobi" | "O'zbekiston adabiyot va san'at" | 23 may 2014 yil №.... |
| 4 | Z.Nabieva | "Ijodkorning mehnat mahsuli" | "Cholg'u ijrochiligi: muammo va yechimlar" (to'plam), 59-63 betlar | "Musiqa" nashriyoti, 2017 yil, |